SIRDARYO VILOYATI SAYXUNOBOD TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 5 - sentabr 213-9-126-Q/23 Sayxunobod tuman hokimligi

Tumanda davlat ahamiyatidagi 4R26 “Sirdaryo sh-Dehqonobad q- Qiyot q- Bekobod sh” avtomobil yo‘lning 26-44 kilometr oralig‘ida yuk mashinalari xarakatlanishini taqiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ—348-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan, shuningdek fuqarolarning ushbu mazmundagi murojaatlarini ijobiy hal etish maqsadida Sayxunobod tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 29.07.2023-yildagi 252-sonli xatiga va Tuman Ichki ishlar bo‘limining 29.07.2023-yildagi 35/1367-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1.Sayxunobod tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 29.07.2023-yildagi 252-sonli xati hamda Tuman Ichki ishlar bo‘limining 29.07.2023-yildagi 35/1367-sonli xatlari inobatga olinsin.

2.Sayxunobod tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (F.Zuxritdinov) belgilangan tartibda quyidagi joylarga:

4R26 “Sirdaryo sh-Dehqonobad q-Qiyot q-Bekobod sh” avtomobil yo‘lining 26-44 kilometr oralig‘ida 3.4 “yuk mashinalari xarakatlanishini taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatsin.

3.Sayxunobod tuman Ichki ishlar bo‘limi YHXB (N.Abduraxmonov) viloyat YHX boshqarmasi bilan birgalikda o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Maxmanazarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **F.O'ktamjonov**